

## QISQA HIKOYA MUTOLAA QILISHNING SAMARALI JIHATLARI

### **Xaldurdiyeva Oguljeren Abajan qizi**

*O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*ingliz tili filologiyasi 1-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: **Kushiyeva Nodira Xabibjonovna,***

*Pedagogika fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya;** Ushbu maqola mutolaa qilishning inson hayotidagi yuksak ahamiyati, uning insonning shaxsiy rivojlanishida, ma`lum ko`nikmalarni qanday shakllantirishida, jismoniy va ruhiy sog`lomligi va til o`rganishda qanchalar beqiyos o`ringa egaligini yoritadi. Bundan tashqari, qay yo`llar bilan inson o`zini mutolaaga jalb etishi, kundalik odatga aylantirishi va har kuni regulyar tarzda kitob o`qishning foydali jihatlari ta`kidlanadi. Va nihoyat, nega mutolaani qisqa hikoyalardan boshlash tavsiya etilishi va qisqa hikoyalar mutolaa qilishning qator samarali natijalari ko`rsatib beriladi.

**Tayanch tushunchalar:** mutolaaning foydalari, qisqa hikoya, kundalik odat, xotirani kuchaytirish, mutolaaga jalb etish, til o`rganish, adabiy muhit, dunyoqarashni kengaytirish, yoqimli mashg`ulot.

### **KIRISH**

Mutolaa inson uchun zaruriy hayotiy omil bo`lib, inson salomatligiga ham jismonan ham ruhan hissa qo`shuvchi, qator yorqin natijalarni namoyon etuvchi yoqimli mashg`ulotdir. Dunyo bo`ylab turli soha vakillari, ayniqsa, olimlar, shifokor va psixologlar mutolaaning yashirin kuchini o`rganishga alohida e`tibor aratib kelganlar, tadqiqot va kuzatishlar natijasida aniq ma`lumotlar jamlashga muvofiq bo`lganlar.

### **MUTOLAANING FOYDALI JIHATLARI:**

Insonlar o`qish ular uchun foyda ekanligini bilishadi, ammo, o`qish, ma`lum tilda biron-bir yozma material o`qish ularga qanday samara berishini aniq aytib bera olmaydilar. Har kunlik mutolaa quyidagi ijobiy natijalarni aks ettiradi:

1. Yangi narsa, ma`lumot olish;
2. Miyani chiniqtirish, mashq qildirish;
3. Diqqatni jamlash;
4. Xotirani kuchaytirish;
5. Zavq berish;
6. Muloqot madaniyatini rivojlantirish;

7. E`tiborni yo`naltirish;
8. Stressni kamaytirish;
9. Ruhiy sog`lomlikni mustahkamlash;
10. Umrni uzaytirish.[1]

Bundan tashqari, regular mutolaa insonda o`ziga hurmat va ishonchni kuchaytiradi, lug`at boyligini oshiradi, vaziyatni to`g`ri baholay olish mahoratini rivojlantiradi[2], va nihoyat, har qanday tilni o`rganish jarayonini jadallashtiradi.

### ASOSIY QISIM

Nega aynan qisqa hikoya?

#### 1. Boshlash uchun oson

Qisqa hikoyalar o`qish mutolaa odatini shakllantirishda eng samarali usuldir. Qisqa hikoyalarning birinchi afzalligi – ularning “qisqa”ligi. Qisqalik faqatgina so`zlar va obrazlar sonini emas, voqealar jadalligi, markaziy nuqta va aviq shaklga ega ekanligini anglatadi. Kitob o`qimaydigan ko`pchilikning aytishicha, bunga sabab ularda yetarlicha vaqt topilmasligi ekan. Ammo bu miyaga singib qolgan tushuncha, vaholanki, insonlar kunining kichik fazalardan iborat kattagina qismini turli ijtimoiy tarmoqlarda sovurib yuboradilar. Qisqa hikoyalarning afzalligi shundaki, bizda bor bo`lgan qisqa vaqt ichida tugata olishimizni bilib turamiz va bu boshlash uchun turtki bo`la oladi.

#### 2. Tugatish hissi

Kitobni tugatish shunchalik muhimmi? Javob “ha”, sababi boshlangan kitobni o`qib tugata olmaslik inson ruhiyatiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham ko`pchilik katta ko`lamli asar o`qishni boshlashga jur`at qilolmaydi, negaki tugata olmaslikdan qo`rqishadi. Biron materialni o`qib nihoyasiga yetkazish insonga zavq bag`ishlaydi.

#### 3. Keyingisiga chorchash

Qisqa hikoyalarda jalb etish hissi nisbatan kuchliroq bo`ladi, ammo kitobxonlar ko`pincha asarlarni tez tamomlaganlaridan va hikoyadan olganlaridan qoniqish hosil qila olmaydi va bu ularda ushbu muallifning boshqa asarlarini (yozish yo`sinini yoqtiradign bo`lsa), yoki boshqa mualliflarning shu mavzuda yozgan asarlarini (mavzuga qiziqqan bo`lsa) o`qishga ishtiyok uyg`otadi. Shunday bo`lsa-da bir narsani unutmaslik kerakki, har qanday hikoya o`zida tugallangan, ochiq oki yashirin ma`no aks ettiradi.

#### 4. Keng adabiy muhit bilan tanishish inkojijiyati

Qaysi kiob o`qishni tanlayotganda har kim o`z didi, sa`viyasi yoki izlayotgan ma`luotlariga asoslanadi. Turli adabiyotlarni o`qir ekan, sevimli

yoʻzuvchisini ham kashf etishi mumkin. Bunda qisqa hikoyalardan boshlash aniq muddat! Negaki, bunday holatda kattita koʻlamli asar boshlash koʻp vaqt va saʼy talab etadi. Qisqa hikoyalar mutolaa bizga kengroq adabiy muhit bilan oshno boʻlish imkoniyatini beradi.

#### 5. Kichik tanaffuz mashgʻuloti

Qisqa hikoya oʻqish foydali degani roman yoki boshqa yirik janrlarda yozilgan asarlarni oʻqishni rad etmaydi. Ammo, ularning koʻproq eʼtibor talab qilishi sir emas. Shu sababli, yirik asarlarni tugatgandan keyin, yangisini boshlashdan oldin kichik tanaffuz olish mutaxassislar tomonidan tavsiya etiladi. Bu, albatta, oʻqishdan butkul toʻxtash degani emas. Bunday paytda kam vaqt, kam energiya oladigan qisqa hikoyalar mutolaa etish eng munosib variant.[3]

#### 6. Til oʻrganishdagi afzalligi

Yangi til oʻrganishda eng samarali usullardan biri. Chunki ular lugʻat boyligini oshiradi, muayyan til grammatikasini tez va oson oʻrganishga yordam beradi, dunyoqarashni kengaytiradi, yozma mahoratini yaxshilaydi. Va koʻpchilik til oʻrganuvchilarning javoblariga koʻra, qisqa hikoya oʻqish orqali til oʻrganish eng yoqimli va tez samara beruvchi usul ekan. Nega faqat qisqa hikoya deysizmi, sababi ularning afzalligi qisqaligida – til oʻrganuvchilar koʻp vaqtlarini faqatgina kitob oʻqishga sarflashni maʼqul bilmaydilar. Bu ularni charchatadi va zoʻriqtiradi.[4]

### QOʻLLANMA

Bugungi kunda shaxsiy mobil telefon, kompyuter yoki planshetiga ega boʻlmagan shaxslarni uchratish juda qiyin. Nega endi bundan foydali maqadda foydalanmasligimiz kerak ekan?! Insonlarning ayniqsa yoshlarning kunining sezilarli soatlari jamoat joylarida oʻtadi. Inson har qanday vaziyatda: bekatda, jamoat transportlarida, navbatda, oʻqish yoki ishdagi tanaffuzda, sayrga chiqqanida kitob mutolaa qilishi mumkin. Bunday vaziyatdagi boʻsh vaqtlar kitob oʻqish uchun yetmaydigandek tuyuladi, ammo, qisqa fazalarni qoʻshib hisoblasak, bir kunning oʻzida anchagina narsa oʻqish mumkin. Masalan, jamoat transportidasiz, manzilga 15 daqiqada yetib borasiz, bu muddatda siz tezligingizga qarab 5-10 varaq oʻqishingiz mumkin boʻladi. Hamma gap buni odat tusiga kiritishda. Maʼlumki, koʻpchilik bunday kichik muddatli vaqtlarini shunchaki ijimoiy tarmoqlarni kuzatishga sarflashadi. Bu kuchli xohishdan emas, balki, odatga aylanganidandir. Kitob oʻqishga odatlanish uchun mobil telefonga elektron kitob va, ayniqsa, qisqa hikoyalarni yukab olish va ularni asosiy ekranga chiqarib qoʻyish kerak. Chunki inson koʻrayotgan narsasiga koʻproq eʼtibor qaratadi.



## XULOSA

Mutolaa inson uchun eng foydali mashg`ulotlardan biri. Uni kundalik odatga aylantirish esa, ayni kutilgan samaralarni beradi. Buning uchun eng muvofiq yo`l esa qisqa hikoyalarni ko`proq o`qishdir.

### FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. 10 benefits of reading books: why you should read every day? Thomas Law. February 7, 2021.

2. Benefits of reading books: how it can positively affect your life. Rebecca Joy Stanborough, MFA. October 15, 2019.

3. 6 reasons why you should start reading short stories. Piotr Kowalzyk. December 21, 2022.

4. 5 benefits of reading for English learners. IELC academic director.